

PAPER

# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMIDA BAHOLASHNING AHAMIYATI

Sadriddinov Behruzjon Sabriddin o'g'li<sup>1, \*</sup>

<sup>1</sup>Buxoro davlat pedagogika instituti 7TEX-24-guruh magistranti

\*sadriddinobexruz213@gmail.com

## Abstract

Ushbu maqolada kredit-modul tizimining paydo bo'lish tarixi, oliy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlashda kredit-modul tizimining ahamiyati, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda kredit-modul tizimining afzalliklari, kredit-modul tizimining asosiy vazifalari, haqida fikr yuritilgan.

**Key words:** oliy ta'lim, kredit, modul, kredit to'plash, GPA, semester, yuklama, baholash, standartlashtirish, ta'lim talablari, ta'lim sifati, ta'lim tizimi.

## Kirish

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot "kredit soati" tushunchasini fanga kiritadi. Shunday qilib, 1870–1880-yillarda kredit soatlari bilan o'chanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lim texnologiyalarining takomillashtirishiga ham olib keldi.

Bolonya deklaratsiyasida ko'zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta'limga urg'u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

- birinchisi, talabalar va o'qituvchilarning mobilligini, ya'ni bir oliy ta'lim muassasasidan boshqa OTMga to'siqlarsiz, erkin ravishda o'tishini (o'qishni yoki ishni ko'chirish)ni ta'minlaydi;
- ikkinchisi, talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishi yoki mutax-

assligi bo'yicha barcha o'quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama –kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig'indisi talabaning tanlagan dasturi bo'yicha nimani qancha o'zlashtirganligini namoyon etadi.

**Kredit-modul tizimi**, bu ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:

- talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash;
- talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25–30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda –40–50% auditoriya soati, 50–60% mustaqil ish soatiga, magistraturada –30%–40% auditoriya soati, 60–70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo'linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o'quv yuklamasi miqdori oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim muassasasi veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassislklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Talaba o'zining

$$GPA = \frac{K_1 \cdot U_1 + K_2 \cdot U_2 + K_3 \cdot U_3 + \dots + K_n \cdot U_n}{K_1 + K_2 + K_3 + \dots + K_n}$$

Figure 1. Grade Point Average

shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o'zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

Talaba bakalavriatda o'qish muddati kamida 3 yil bo'lganda 180 kredit, o'qish muddati kamida 4 yil bo'lganda 240 kredit to'plashi zarur. Magistraturada o'qish muddati kamida 1 yil bo'lganda 60 kredit, o'qish muddati kamida 2 yil bo'lganda 120 kredit to'plashi talab etiladi.

**O'quv yuklamasi** — talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

**GPA (Grade Point Average)** — ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u 1-rasmdagi (Fig. 1) formula yordamida hisoblanadi:

Bunda:

K — har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U — har bir fan/modul bo'yicha talaba to'plagan baho.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- o'quv jarayonini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan va kurs kesimida kreditning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting asosida aniqlash va baholash;
- talabalarining o'z shaxsiy o'quv rejalari individual tarzda shakllantirishga imkoniyat yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yiladigan talabdan kelib chiqib o'zgarishlarni amalga oshirish;
- talabalarining fanlar va professor-o'qituvchilarni tanlashi uchun imkoniyatlar yaratish.

Kredit-modul tizimining faqat biz uchun yangi bo'lgan va amaldagi ta'lim tizimida mavjud bo'lmagan quyidagi muammoli jihati va afzalliklarini va uni amalga oshirish bo'yicha takliflarni keltirib o'tamiz:

1) Oliy ta'limning samaradorligi. Amaldagi ta'lim tizimida talabalar 1- kursdan boshlab yo'nalishlar va ular ichida tarmoqlar bo'yicha ajratilib ixtisoslik fanlarini o'qishni boshlashadi. Ya'ni, biz talabani hali abituriyentlik paytidayoq tanlovdan mahrum qilib ixtisoslikka biriktirib qo'yamiz. Kredit-modul tizimida esa eng avvalo talabaga tanlov imkoniyati beriladi. Tanlov fanlari semestr-dan semestr-ga oshib boradi. Ilg'or xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, bakalavriatni ikkita bosqichga ajratish orqali, 1-2 kurslarda tayanch fanlarni, 3-4 kurslarda esa tanlov asosida ixtisoslik fanlarini o'qitish mumkin. Demak, endilikda kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun 4 yil emas, 2 yil yetarli bo'ladi. Bu esa oliy ta'limning ish unumini, samaradorligini 2 barobar oshiradi.

2) "Talaba-o'qituvchi" nisbati. Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida maxsus fanlarni past kurslardan boshlab rejalashtirish, o'quv rejalardagi takrorlanadigan fanlarni har xil mutaxassisliklar bo'yicha alohida o'qitish, auditoriya soatlari hajmini oshirish kabi holatlar mavjud. Bunday jarayonlar o'quv yuklamalarining keskin oshishiga sabab bo'ladi.

3) "Registrator Ofisi". Amaldagi ta'lim tizimida talabalar kontingenti bilan dekanatlar, o'quv bo'limi, kadrlar bo'limi, qabul bo'limi kabi ko'plab bo'linmalar shug'ullanishadi. Talabalar kontingenti bilan shug'ullanadigan markazlashgan bo'linma esa mavjud emas.

4) "O'quv rejalari mosligi". Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bir xil yo'nalishdagi o'quv rejalarning turdosh OTMLarda o'zaro farq qilishini kuzatish mumkin. Kredit-modul tizimi joriy qilinishi bilan esa o'quv rejalari Bolonya jarayoni ishtirokchisi davlatlaridagi o'quv rejalarga to'liq mos bo'ladi va diplomlarning o'zaro tan olinishiga sharoit yaratiladi. Buning uchun birinchi navbatda o'quv rejalari tizimining xorijiy o'quv rejalarga mosligini tahlil qilishimiz zarur.

## Xulosa

Kredit-modul tizimi oliy ta'lim muassasalarida talabalarining bilim va ko'nikmalarini baholashda samarali va innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Ushbu tizim, talabalarga o'z ilmiy faoliyatlarini mustaqil ravishda tashkil etish imkonini berib, o'qituvchilarni esa har bir modul bo'yicha aniq va adolatli baholash imkoniyatiga ega qiladi. Kredit-modul tizimi orqali amalga oshirilgan baholash jarayoni, talabalarining o'qish jarayonini faollashtiradi, ularning o'z vaqtida va sifatli o'qishini ta'minlaydi, shuningdek, ta'limning o'ziga xos va global standartlarga mos bo'lishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, bu tizim talabalarining maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va muvozanatli ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining samaradorligini oshiradi. Kredit-modul tizimi orqali baholash, ta'limning sifatini yanada yuksaltirish va talabalarga ish dunyosida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni taqdim etishda muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, kredit-modul tizimi ta'lim jarayonida sifatli o'qitish va o'quvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni yaratishda davom etmoqda va uning ahamiyati kelajakda yanada ortib boradi.

## Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 31.12.2020 yildagi 824-son qarori.
3. Urakboyev Bekzod Toshtemitovich "KREDIT-MODUL TIZIMINI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISHNING METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH" «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya 197-202 b.
4. Xaydarova Iroda Nizomiddinovna OLIY TA'LIMDA "KREDIT-MODUL TIZIMI". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences December 2021. 1021-1024 b.
5. Sapayev M., Qodirov F.M., Abdullayeva S.M. "KREDIT TIZIMI ASOSIDA TA'LIM JARAYONLARINI REJALASHTIRISHNING AFZALLIKLARI VA MUAMMOLI JIHATLARI" 77-86 b.
6. Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich "OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ECTS KREDIT-MODUL TIZIMIGA O'TILISHNING MUHIM JIHATLARI" Current Issues and Modern Trends of Social and Humanitarian Sciences April 24, 2024. 265-271 b.